



**“DEVONI HIKMAT” DEVONIDA TASAVVUFIIY TIMSOLLAR VA ULARNING
BADIY TALQINI.**

Abdivaitova Sevinchbonu Adhamjon qizi

Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika institute

Filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili yo‘nalishi 4-kurs talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Ahmad Yassaviyning „Devoni hikmat“ asaridan olingan parchalarda tasavvufiy timsollar va ularning badiiy talqini yoritib berilgan. Oshiq, ishq, muhabbat, kabi tasavvufiy timsollar hamda ularning qo‘llanish sabablari ilmiy asoslab berilgan. Hikmatlar nafaqat diniy, balki axloqiy va estetik ahamiyatga ega bo‘lgan asardir.*

Kalit so‘zlar: *Ishq, oshiq, solik, muhabbat, so‘fiy, ashqall, habb, nabiy, rasul, baqo, iymon, tariqat, tasavvuf.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются мистические символы и их художественная интерпретация на примере отрывков из книги Ахмада Ясави «Дивани Хикмат». Мистические символы, такие как ашик, ишк, мухаббат, и причины их использования научно обоснованы. Мудрость – это творения, имеющие не только религиозное, но и моральное и эстетическое значение.*

Ключевые слова: *Ишк, ашик, салик, мухаббат, суфизм, ашқалл, хабб, набий, расул, бака, иман, тариқат, суфизм.*

Abstract: *This article highlights mystical symbols and their artistic interpretation in excerpts from Ahmad Yasawi's "Divani Hikmat". Mystical symbols such as ashik, ishq, muhabbat, and the reasons for their use are scientifically substantiated. Wisdoms are works that have not only religious, but also moral and aesthetic significance.*

Keywords: *Ishq, ashik, salik, muhabbat, sufi, ashqall, habb, nabiy, rasul, baqa, iman, tariqat, sufism.*

Ahmad Yassaviy turkiy tasavvuf she‘riyatining atoqli vakili. U “Devoni hikmat” asari orqali jahonning bir nechta mamlakatlarida mashhur bo‘lgan. Bu asarda tasavvufiy timsollardan foydalanib, aytilayotgan fikrni she‘riy tarzda chiroyli ifodalab bergan. Yassaviy hikmatlarida nafs, iymon, oshiq, solik kabi tasavvufiy timsollar uchraydi. Jumladan, quyidagi baytda

Muhabbatni buroqini minib yurgan,
Andoq oshiq tariqatda javlon qilg‘ay,
Sir sharobin ichib azal ruhi qongan,
Ishq bog‘ida navo qilib yurar bo‘lgay

Tasavvufning mohiyati ikki tomonlama muhabbatni talqin qilish bo‘lib, tasavvuf axloqshunosligida muhabbat his -tuyg‘ulik maqomidan tushuncha darajasiga ko‘tarilgan. Allohni sevish, Uning zoti sifatini tanish va bilish ko‘ngilni nafs-u hirs g‘uboridan tozalab,



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



botiniy musaffo bir holatda iloh vasliga yetishish va bundan lazzatlanish g'oyasini keng targ'ib qiladilar. Inson ruhi ilohiydir va demak asosiy maqsad - ruhiy- ma'naviy yuksalishdir.

Bizning kundalik lug'atimizda mazkur tuyg'uni ifodalashning bir necha istilohlari mavjud bo'lib, ular jamoatchilik orasida keng qo'llaniladi. Muhabbat va ishq shular jumlasidandir. Muhabbat arabcha so'z bo'lib, -“Habb” o'zagidan yasalgan va mehr, sadoqat, yaqinlik ma'nolarini ifoda etsa-da, lug'aviy ma'nosi urug' ya'ni ustiga tuproq tortilgan urug' ma'nosini anglatadi. Hayotning asli va asosi ana shu urug' bo'lganidek, diniy, ma'naviy, jismoniy va ruhiy hayotning urug'i ildizi va daraxti ham ana shu muhabbat hisoblanadi. Ishq so'zi esa arabcha —“ashqall” kalimasidan olingan. Ashqa bir chirmovuq o't bo'lib, u o'ralib yopishib olgan o'simligini quritmay qoymaydi. Demak, kuchli, shiddatli ishq o'z sohibini ashqa o'simligi singari quritadi. Oshiqlik-haqsevarlikning, ma'rifatga shaydolikning oliy ko'rinishi. Qolgan barcha hollarda soxtakorlik, riyo bo'lishi mumkin, ammo ishqda, oshiqlikda bu illat bo'lmaydi. Faqat ishq kishini adabiyotga-baqo olamiga olib boradi. Muhabbat-tasavvufning asosiy ruknlaridan biri. Tasavvuf ilohiy muhabbat haqidagi ilmdir deyish mumkin. Chunki tasavvuf Allohni bilish va tanishni yashirin ichki tuyg'u, muhabbat v ositasida amalga oshirish mumkin, deb targ'ib qiladi. . So'fiyning butun intilishlari oliy Haqiqatga fidoiy muhabbatdan iborat. Ishq solik qalbini bir zum ham tinch qoymaydi, olam va odam mohiyatini, ilohiy mo'jizalarni idrok etishga yo'l ochadi; muttasil ruhiy-ma'naviy yuksalishga hidoyat qiladi. Ishq-ilohiy ma'rifatni kashf etuvchi qudrat, solik vujudini yondirib, mahbub visoliga yaqinlashtiradigan poklovchi muqaddas olov. Qalbda ishq qanchalik kuchli bo'lsa, solik ma'rifat zinalaridan shuncha bardam ko'tarila boradi, nafsiy sifatlarni tark etib, kamolot cho'qqilarini zabt etaveradi. Ishq insonni ma'rifatga olib boradigan qudrat, insonni moddiy asosdan poklovchi, xoli etuvchi muqaddas olov. Ishq solik vujudini kuydurib, ruhini musaffo etadi. Muhabbatda yurgan kishi buroq otida xuddiki, sayr qilayotganga o'xshatiladi, tariqatda xursand bo'lib yuradi hamda ishqning bog'ida ham sayr qiladi degan ma'nolarni o'z ichiga oladi.

O'ttiz birda Xizr bobom may ichurdi,
Vujudimdin Azozilni pok qochurdi.
Savdo qildim yozuqlarim Haq kechurdi,
Ondin so'ngra Haq yo'liga soldi, do'stlar.

Xizr alayhissalomning payg'ambar yoki faqat valiy zot ekani haqidagi ixtiloflarda u zotning payg'ambarligini tasdiqlaydigan ulamolar ko'pchilikni tashkil qiladilar. Ayrim ozchilik ulamolar esa Xizr alayhissalomni payg'ambar bo'lmagan deganlar. Xizr alayhissalomni payg'ambar bo'lmagan deydiganlar quyidagicha dalil keltirganlar: “Qur'onda u zot nabiy yo rasul deb sifatlanmagan, balki banda deb sifatlangan:

“Bas, bandalarimizdan bir bandani (Xizrni) topdilar. Biz unga O'z dargohimizdan rahmat ato etgan va O'z huzurimizdan ilm bergan edik”. Shunga ko'ra agar u zot payg'ambar bo'lganida albatta boshqa payg'ambarlar singari nabiy yo rasulligiga dalolat qiladigan biror sifat bilan zikr qilingan bo'lar edi”. Xizr alayhissalomni payg'ambar bo'lgan deganlar esa bu dalilga quyidagicha javob berganlar: “Allohning bandasi degan vasf yuksak maqom bo'lib,





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



bunday maqom bilan Qur’onda payg‘ambarlar vasf qilingan. Masalan payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasalam tunda sayr qildirilgan kecha haqidagi oyatda ushbu yuksak maqom bilan vasf qilinganlar: “(O‘z) bandasi (Muhammad)ni tunda sayr qildirgan zotga tasbeh aytilur”[2]. Shunga ko‘ra Xizr alayhissalom ham mazkur yuksak maqom bilan vasf qilingan payg‘ambar hisoblanadi”. Xizr alayhissalomni payg‘ambar bo‘lmagan deydiganlar yana quyidagi dalilni keltirganlar:

“Payg‘ambarlar qavmlariga ilohiy topshiriqlarni yetkazuvchi va ularga nasihat qiluvchi bo‘lganlar. Nuh alayhissalom aytganlaridek: “Sizlarga Robbimning topshiriqlarini yetkazurman va sizlarga nasihat qilurman” Ammo bu zotning biror qavmga ilohiy amrlarni yetkazuvchi yoki nasihat qiluvchi bo‘lmaganlari bilittifoqdir. Shunga ko‘ra u zot payg‘ambar emas balki valiy zot bo‘lgan”. Xizr alayhissalomni payg‘ambar bo‘lgan degan ulamolar bu dalilga quyidagicha javob berganlar: “Payg‘ambarlar Qur’onda rasul (elchi) va nabiy (xabardor qilingan) sifatleri bilan zikr qilingan. Bu ikki sifat o‘rtasida farq bo‘lib, sizlar dalil qilib keltirgan oyat rasul payg‘ambarlarning sifatidir. Xizr alayhissalom esa rasul emas balki nabiy payg‘ambar bo‘lganlar. U zotning payg‘ambar bo‘lganini quyidagi dalillar qo‘llab-quvvatlaydi: Valiylarga payg‘ambarlar ergashmaydi. Balki payg‘ambarlarga valiylar ergashadi. Shu ma’noda Muso alayhissalom Xizr alayhissalomdan unga ergashishni so‘ragan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Eshonqulov A. Tasavvuf va adabiyot. Toshkent: Fan, 1997.
2. Komilov N. Tasavvuf – qalb ilmi. Toshkent: Ma’naviyat - 2004.
3. Usmon Tura Tasavvuf tarixi Toshkent: “Istiqlol” 1999-1806
4. Komilov N. Tasavvuf. Toshkent: “Movarounnahr” – 2009
5. [https:// ziyo.net](https://ziyo.net)
6. [https:// cyberleninka](https://cyberleninka)

